



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA GURUHLARDA ISHLASHNI TASHKIL QILISH USULLARI

Xusanova Madinabonu Muzaffarjon qizi  
Qo'qon universitet talabasi

*Annotatsiya:* Ushbu tezisda boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida guruhlar bilan ishlash, darslarning samarali bo'lishi uchun har xil didaktik va interfaol usullarni qo'llash haqida fikrlar bayon qilingan.

*Kalit so'zlar:* boshlang'ich ta'lim, interfaol, ta'lim, o'qish savodxonligi.

O'qitishning interfaol usullarini qo'llash bu o'quv jarayoning yanada yuksalishiga olib keladi. Bu interfaol metodlarni xar bir darsga muvofiq tanlash lozim, negaki xar bir metod o'zining usullari bilan ajralib turadi. Bu metodlardan foydalanilganda an'anaviy dars jarayonlari yanada qizg'in va qiziqarli tus oladi. Shuningdek, bugungi kunda faqatgina interfaol metodlar bilan cheklanib qolmay turli xil texnologiyalarga xam qiziqish ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchilarni izlanuvchanlikka, yetuklikka, kurashuvchanlikka, kreativ fikrlashga chorlaydi va ularda tarbiya instinkini hamtarbiyalaydi. Bu jarayonda esa o'quvchilar albatta asosiy figuraga aylanishadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, hamda yetuk, professional kadr bo'lib yetishishlariga olib keladi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birlashishidan tashkil topgan faoliyat bo'lib, shu jarayonda shaxsning kreativligi hamda uning tarbiyasi ham ma'lumoti ijobiy tarafga qarab osib boradi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimlarini o'quvchilarga o'zining har xil metod va xar xil interfaol usullari bilan yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish, ya'ni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar qabul qilib olish jarayoni turli hil usullardan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga qay tarzda yetkazib bera olish tarzida tatbiq qilishadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi birga ishlashlari, darsdan keying bosh vaxtlarida nimalar bilan shug'ullanishlari haqida hamda o'quvchilarning qiziqishlari haqida so'z yuritilgan bo'ladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini dars mobaynida qo'llash, ularni o'quvchilar bilan birgalikda qo'llab ko'rish juda ham urufga chiqqan desak ham mubolag'a bo'lmaydi.



O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda ularda liderlik qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bugungi ta'lim jarayonida "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar" metodi, "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahsmunozara", "Rolli o'yin", FSMU, "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag", "Oxirgi so'zni men aytay" kabi zamonaviy texnologiyalar o'quvchilar bilan juda ham qiziqarli metodlar sifatida qo'llanmoqda.

Guruhlarda ishlash atrofda qilargalarga bo'lgan munosabtni o'zgartiradi. "men va ular", "biz", ga o'tishni ta'minlayda. O'quvchilarda guruhda kerakliklarini va guruhga foydasi tegyotganini bilib yanada bilimi ziyoda bo'ladi.

#### **Kichik guruhlarda ishlaganda o'quvchilar quyidagilarga erishadilar:**

1. O'rganilayotgan materialni oldin o'tilgan material bilan bog'liqligini izlab topishni
2. Birgalikda o'tilayotgan o'quv materialini muhokama qilishni
3. Shaxsiy fikrlarini shakllantirish, ifoda etish va argumentlashni
4. Bir-birlarini muvaffaqiyatlarini ko'rsatish
5. Berilgan ishni ohiriga yetkazishga intilishda bir-birini qo'llab-quvvatlash

#### **Guruhda ishlashni rejalashtirish paytida nimalarga e'tibor berish kerak?**

Vaqtga- qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish va rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun ixtiyoringizda qancha vaqt borligini aniqlab olish.

#### **Ta'lim oluvchilarni qanday tuzilganda yaxshi natija beradi?**

Belgilari boyicha- yoki oquv yutuqlari darajasi boyicha tuzilganimi, ya'ni: baravarlantirish, qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish guruhlarini  
Soni boyicha-2 Dan to 5 kishigacha-uncha katta bo'lmagan vazifalarni bajarish uchun

Vaqt boyicha- kichik guruhlar, belgilangan vazifani bajarish uchun qancha vaqt ajratilgan bo'lsa, shuncha vaqt faoliyat ko'rsatadi.

#### **Guruhlarda ishlash qoidalari qanaqa?**

Ta'lim oluvchilar, guruh a'zolarining majburiyatlarini bilishlari va bajarishlari zarur:

1. Har bir a'zo o'rtog'larini fikrini eshitishi lozim
2. Har bir a'zo ishda faol qatnashishi va hamkorlikda ishlashdan boyin tortellini kerak
3. Har bir a'zo zarurati bo'lganda yordam so'rashi kerak
4. Har bir a'zo undan yordam so'rashganda boshqalarga oz yordamini berishi kerak
5. Har bir a'zo konkret vazifani bajarishda, o'zining konkret vazifasini bilishi kerak



### “Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha” metodi

O‘quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: Bu metodda o‘quvchilar 4 ta guruhlariga bo‘lingan holda bo‘ladi.

1. O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;

2. O‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

3. O‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bo‘liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Bu metoddan foydalanganimizda so‘ng faol qatnashgan guruhlarini rahbatlantiramiz. Ularni xar hil kartichkalar yordamida xursand qilamiz.

### 4 burchak enerjyazeri

Sinfning to‘rtta burchagini mavzuga doir 4ta atama bilan belgilab oldim. Qo‘limdagi qog‘ozga o‘quvchilarga ko‘rsatmagan holda burchak nomlaridan birini yozdim. O‘quvchilar taxmin qilgan holda men YOZMAGAN burchakka borib turishlari kerak! Ya‘ni yozilgan burchakni tanlamasliklari kerak! Qog‘ozchada yozilgan burchakka borgan ishtirokchi “tuzoqqa tushadi” va unga savol beriladi! To‘g‘ri javob bersa, o‘yinni davom ettirish imkoni beriladi.

### “Videotopishmoq” metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta‘lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta‘lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o‘quvchilar e‘tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.



Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

1-sinf darsligidagi "Oshxona jihozlari", "Qushlar", "Uy hayvonlari va parrandalar" kabi mavzularini o'rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo'llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to'rtta va taalluqli bo'lmagan (ortiqcha) bitta so'z (tushuncha, fikr) beriladi.

O'quvchilar ana shu so'zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.

Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo'llash mumkin. Yozuv ekranda ko'rsatiladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni aniqlashadi.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida guruhlarda ishlash o'quvchilarga nima beradi?

- 1) kayfiyati ko'tariladi;
- 2) darsga qiziqishi kuchayadi;
- 3) mavzuni yodda saqlab qolishlariga yordam beradi;
- 4) xotiralarini rivojlantiradi;
- 5) raqobat muhitida dars davomidagi zerikish hissini unutadi;
- 6) oquvchilarni o'ziga va faniga jalb etishga yordam beradi;
- 7) mavzuni osonlik bilan o'quvchilar ongiga muhrlaydi;
- 8) o'quvchilarni ertangi darsga ham tayyor holatda kelishiga osonlik bilan erishadi;
- 9) sinf xonasiga quvnoq muhitni olib kirish orqali darsga umuman qiziqmaydigan o'quvchini ham faollashtirishga yordam beradi;
- 10) bu metodni davomli qo'llash bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham asta-sekin yuqoriga olib chiqishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kun o'qituvchidan yangidan yangi texnologik metodlar ya'ni interfaol usullarni o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, interfaol metodlarni dars mobaynida qo'llash yaxshi foyda beradi. Maqolam yakunida birinchi prezidentimizning: "Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyo'ularini uyo'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik" - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva M. (ma'sul muxarrir), Jalolov A., Nazarov Q., Nosirov R., Otamurodov S., Ochildiev A., Ro'ziev R (rahbar), Sharipov A., Shermuhamedov S., Haitov Sh., Hoshimova I. Falsafa: ensiklopedik lug'at. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010-yil, 344 b.
2. Djuraev R.X., Tolipov O'.Q, Safarova R.F., To'raqulov X.O., Inoyatova M.E., Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug'ati. –T.: "Fan" nashriyoti, 2008-yil.
3. Parpiyev, O., & Pozilov, H. (2023, June). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TOPISHMOQLARNING AHAMIYATI. In *Конференция: Союз Науки и Образования* (Vol. 5, No. 2, pp. 63-74).
4. Mannonova Muxarramabonu, & Odiljon Parpiyev. (2023). AUDIOLINGVAL METODNING AFZALLIKLARI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 882–887. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.749>
5. Muazzamxon Xodjayeva, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QISH VA SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 914–918. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.758>
6. Ochildiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>
7. Xushbaqova Zarnigor Javliyevna, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 645–650. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.667>